IQLIMNING GLOBAL O‘ZGARISHI SHAROITIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI VA ILMIY-AMALIY YECHIMLARI

RESPUBLIKA MIQYOSDAGI ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MAQOLALAR VA TEZISLAR TO‘PLAMI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

“IQLIMNING GLOBAL O‘ZGARISHI SHAROITIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI VA ILMIY-AMALIY YECHIMLARI”

RESPUBLIKA MIQYOSDAGI ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MAQOLALAR VA TEZISLAR TO‘PLAMI

2024 - YIL 4-5 APREL

Qarshi -2024

BATAT YETISHTIRISHNING AHAMIYATI

dots. Yodgorov N.G‘[1]., Qo‘ylieva M.B[2].
[1]“TIQXMMI” milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti,
[2]Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘sib borayotgan aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlashda noan’anaviy batat ekini qishloq xo‘jaligida yetishtirishning ahamiyati bo‘yicha ilmiy ma’lumotlar tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: shirin kartoshka, ipomoea batatas L, tuganak meva, yetishtirish.


Kirish. Dunyoda soni o‘sib borayotgan aholini oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojini qondirish muhim strategik ahamiyatga ega. Shunga ko‘ra qishloq xo‘jaligi o‘simliklarining hosildorligi va hosil sifatini oshirish muhim masalalardan biridir. Ushbu yo‘nalishdagi mavjud muammo yechimini topish bilan bog‘liq holda tuproq - iqlim sharoitiga mos o‘simliklarni tanlash va ularning biologik xususiyatlarini hisobga olgan holda mintaqalar, hududlar bo‘yicha to‘g‘ri joylashtirish, yetishtirish texnologiyasini to‘g‘ri tadbiq etishga alohida e’tibor berilmoqda [1]. Batat (Ipomoea batatas L.) oziq - ovqat ahamiyatiga ega bo‘lgan anashunday o‘simliklardan biridir, respublikada qishloq xo‘jaligida noan’anaviy tuganak mevali batat o‘simligini iqlimlashtirish, uning yetishtirish agrotexnikasini ishlab chiqish muhim masala hisoblanadi.

Ipomoea batatas - ko‘p yillik issiqsevar o‘simlik bo‘lib, vatani Meksika va Markaziy Amerika. Oziq-ovqat sifatida konserva, kraxmal-qiyom va spirt sanoatida ishlatiladi. Qadimdan ushbu o‘simlik Xitoyda ham ekib kelingan.

Yaponiya, AQSh, Ispaniya, Hindiston mamlakatlarda keng maydonlarda ekiladi. Shuningdek, Zakavkaze, O‘rta Osiyo (Turkmaniston, Tojikiston)da o‘stiriladi [2]. Hosildorligi 200 - 300 s/ga. Batat ekinidagi protein miqdori AQShda muhim protein manbai hisoblanadi [3]. Ildiz meva quruq vazn asosida 1,73% - 9,14% proteinni o‘z ichiga oladi va oqsil bo‘lmagan azotga boy (Bovell-Benjamin, 2007; Truong va boshq 2018) [4]. Shirin kartoshka lipidlari, ayniqsa glikolipidlar saratonga qarshi ma’lum ta’sirga ega ekanligi aniqlangan (Mu & Singx, 2019).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi “O‘zbekiston respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-son

Farmoni bo‘yicha ko‘rsatilgan vazifalar bugungi kunda ushbu yunalishda. Ya’ni, noan’anaviy ekinlar o‘stirishda o‘simliklarni biologik xususiyatlarini hisobga olgan holda mintaqalar va hududlar bo‘yicha to‘g‘ri joylashtirish hamda yetishtirish agrotexnologiyasini to‘g‘ri tadbiq etish amalga oshiriladigan ishlarning dolzarbligini belgilab beradi.



1-rasm. Batat ekini guli va ildiz mevasi.

Dunyo dehqonchiligida 50 dan ortiq tropik va subtropik mamlakatlarida (Xitoy, Malavi, Tanzaniya, Nigeriya, Indoneziya, Hindiston, Yaponiya, Koreya, AQSh, Meksika, Kongo, Uganda kabilarda) asosiy oziq-ovqat ekini sifatida 8,7 mln. gektar maydonda ekilib, 113 mln. tonna yalpi hosil yetishtiriladi [5]. Shuning 64 foizi Xitoy hissasiga to‘g‘ri keladi. U asosan kraxmal va shakarga boy tuganak mevasi uchun yetishtiriladi. Tuganak mevasida 90 foizgacha uglevodlar mavjud. Oziq-ovqatda tuganak mevasi pishirib, qovurib, qaynatib iste’mol qilinsa, sanoatda kraxmal olish uchun ishlatiladi. 1 kg xo‘l tuganak mevasida 1200 - 1250, qaynatilgan yoki konservalanganda esa 1750 - 2000 kilokaloriya saqlaydi [6].

Batat yetishtiruvchi mamlakatlarda tuproq sharoiti va yetishtirish agrotexnologiyasining ilg‘or usullarini qo‘llash hisobiga uning hosildorligini yildan – yilga oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda, xususan Qashqadaryo viloyatida 360 ming/ga dan ziyod sug‘orib dehqonchilik qilinadigan maydonlar mavjud bo‘lib, ushbu maydonlarda hozirda amalda bo‘lmagan noan’anaviy tuganak mevali xususan, batat o‘simligini yuqori potensial hosildorlik ko‘rsatkichlari inobatga olinsa, ushbu maydonlarda ekib, yuqori va sifatli tuganak meva hosili olish imkoniyati mavjud [7].

Shunday ekan, respublikamizdagi mavjud suvli yer maydonlaridan samarali foydalanish, noan’anaviy ekinlarni yetishtirish, ulardan mo‘l va sifatli

hosil olish respublika qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotining o‘sishiga xizmat qilishi tabiiydir.

Shuningdek, Qashqadaryo viloyatining tuproq-iqlim sharoitida har yili o‘rtacha 70-80 ming gektar suvli maydonlarda noan’anaviy Ipomoea batatas (batat) ekini yetishtirish imkoniyati borligi mazkur viloyatda ham ushbu ekindan sug‘oriladigan maydonlarda samarali foydalanishni taqozo etadi.

Ushbulardan kelib chiqqan holda, Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti markaziy tajriba maydonida o‘tkazilayotgan tadqiqotning asosiy maqsadi ham Qashqadaryo viloyatining och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida noan’anaviy Ipomoea batatas (batat ekini) ekinidan mo‘l va sifatli hosil olish agrotexnikasining ushbu o‘simlikni o‘sish va rivojlanishi bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar berishdan iborat.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, Qashqadaryo viloyatining tuproq-iqlim sharoitida noan’anaviy batat ekini maqbul agrotexnologik tadbirlarda o‘tkazilishi va undan yuqori hosil olinishi natijasida aholini sabzavot ekinlariga bo‘lgan talabi to‘liq ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Otaboeva X.N., Xudoyqulov J. B. O‘simlikshunoslik. Toshkent. 2018. - b. 279-282.
2. Ostonaqulov T.E., Amonturdiyev I.X. Kartoshkachilikda suv tejamkor texnologiya. // «O’zbekiston mevasabzavot mahsulotlarining ustunligi» xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya maqolalari to’plami. -T. 13 iyul, 2016. -B. 343.
3. Ostonaqulov T. E. Kartoshka yetishtirish 2– kitob. T.: Nashriyot uyi “Tasvir” – 2021. -95 b.
4. Ostonaqulov T.E., S. Sanaev. O‘sish uchun moslashtirilgan kartoshka navlarini tanlash // Osiyo ko‘p o‘lchovli tadqiqotlar jurnali (AJMR) (2017), 6 (11), 59.
5. Shamsiev A.A., Tursunov G.S., Ostonaqulov T.E. (2020). Turli xil sug‘orish rejimlarida shirin kartoshka navlarining hosildorligi va saqlanishi. Prioritetbi mirovoy nauki yilda: eksperiment i nauchnaya diskussiya (pp. 37-41). 5-6 oktabr.
6. Bourke R.M. Papua-Yangi Gvineyadagi shirin kartoshka (Ipomoea batatas) o‘sishiga azot va kaliyli o‘g‘itlarning ta’rifi (1985). Dala ekinlari tadqiqoti 12: 363-375 b.

	Xolikova M.A., Matniyazova H.X.	
80	**Yormabop don uni bilan boyitilgan non mahsulotlari va ularning foydali tarkibi** Djaxangirova G.Z., Xusainova M.S., Yuldasheva.I.E	292
81	***G. Hirsutum* L. Rangli tolali nav namunalarining F_1 duragaylarida 1000 dona chigit og'irligi belgisining irsiylanishi** Rahimova G.X., Nabiev S.M.	295
82	**Batat yetishtirishning ahamiyati** Yodgorov N.G'., Qo'ylieva M.B.	299
83	**Олча шиллиқ арракашининг қишловдан чиқиш муддатларига тупроқ ва хаво намлигининг таъсири** Холмирзаева З.Б., Ҳасанбоева М.М.	302
84	**Глобал иқлим ўзгариши шароитида сув тежовчи агротехнологиялардан бири – қурғоқчиликка чидамли ғўза навларини яратишдир** Набиев С.М., Азимов А.А., Хамдуллаев Ш.А., Шавқиев Ж.Ш., Абдурасулов Ф.Ш.	305
85	**"Боботоғ" ва "Хурсандчилик" хандон пистанинг янги маҳаллий навлари** Гулбоев Ў.Б., Нуров Р.П., Эшанкулов Б.И.	309
86	**Лалми ҳудудлар самарадорлигини оширишда хандон пистанинг "мустақиллик" ва "серҳосил" навлари иқтисодий кўрсаткичлари** Қўшбоқов А.К., Хомидова Н.И., Эшанкулов Б.И.	312
87	**Хандон пистанинг "*Ahmad Aghaei*" навининг биоморфологик хусусиятлари** Эшанкулов Б.И., Холова Ш.А., Хасанов Б.Г.	316
88	**Бахмал давлат ўрмон хўжалигида хандон пистанинг янги маҳаллий навларини пайвандлашнинг дастлабки кўрсаткичлари** Ўролов З.Н., Холмуротов М.З., Эшанкулов Б.И.	320
89	**Кузги буғдой дон сифатини гербицид ва минерал ўғитлар меёрларига боғлиқлиги** Ибрагимов З.А.	323
90	**Bir yilda ikki marta don hosili yetishtirishda mineral o'g'itlar samaradorligini oshirish** Irnazarov Sh.I.	330
91	**Технико-экономический анализ, расчет и обоснование производства пресной воды в республике Узбекистан** Рахимов Н.З.	337
4-SHO'BA. KIMYO SANOATIDA GLOBAL MUAMMOLAR VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR		